



“Bek cluster” korxonasida paxta tolasini saqlashda foydalanilayotgan zamonaviy qurilmalar tasnifi. Paxta xom ashyosini saqlashda namlikning tolasifatiga ta’sirini ilmiy asoslash

Otaboyev Muhammad Faxriddin o’g’li ¹

Qabulov Ibroxim Mamatqul o’g’li ²

Guliston davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6625812>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 08th June 2022

KEY WORDS

Cluster, tabiiy tola, saqlash omborlar, g’aramlar, innovatsion loyihalar, zamonaviy uskunal, namlik, harorat, zichlik, jinlash, DP-130 arrali jin, momiq.

Paxta tayyorlash maskanlari va paxta tozalash korxonalarida paxta seleksion, sanoat navlari hamda terish uslublari bo’yicha alohida qabul qilinadi va saqlanadi.

Paxta to’dalarini jamlash, ularni saqlash va qayta ishlash tolaning tipi bo’yicha, uning sifat ko’rsatkichlarini hisobga olgan holda «Paxta terish va tayyorlash bo’yicha yo’riqnoma» ga amal qilgan holda har qaysi xo’jalikniki alohida amalga oshiriladi.

Urug’lik paxta texnik paxtadan alohida to’dalarga qabul qilinadi va jamlanadi.

Har xil zararkunandalar va kasalliklar («qora shira», gommoz, makrosporoz va h.k.), bilan zararlangan paxta alohida qabul qilinadi, jamlanadi, saqlanadi va qayta ishlashga jo’natiladi.

Paxtani yaxshiroq saqlash, uzoq muddat saqlashni to’g’ri tashkil etish maqsadida paxtani jamlashni uning namligini hisobga

ABSTRACT

Paxta xom ashyosini saqlashda Zamonaviy asbob uskunalarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Ushbu maqola Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanida tashkil e’tilgan “Bek cluster” QK paxta tozalash zavodida ishlatilayotgan zamonaviy texnologiyalar, paxtani qayta ishlash jarayonida namlikning tola sifatiga ko’rsatadigan ta’siri haqida.

olgan holda tabaqalab bajarish kerak. Namligi 14 foizgacha bo’lgan paxtani tozalash bo’limi hududiga, namligi 14 foiz va undan yuqori bo’lgan paxtani esa quritish tozalash sexi hududiga joylashtirish kerak. Namligi 20 foizdan yuqori bo’lgan paxtani quritish tozalash sexiga yaqin bo’lgan joyga jamlash kerak, chunki uni tezda quritish va qayta ishlash lozim bo’ladi.

Paxtani saqlash uchun yopiq omborlar, yarim ochiq yoki to’rt tomoni ochiq ombor (ayvonlar) va ochiq maxsus tayyorlangan maydonchalardan foydalaniladi.

Paxtani shibbalangan shag’al bilan yoki asfalt bilan qoplangan maydonlarga jamlashga ruxsat etiladi. G’aram maydonlarining o’lchamlari 25 x 14 m, balandligi yer sathidan 0,4 m bo’lishi va yog’in-sochin suvlarini chiqib ketishini



ta'minlash uchun o'rtasini 0,05-0,07 m ga

ko'tarish

kerak.

Paxtanavi	Paxta namligi, foiz	Shakllangan g'aramning balandligi, m gacha		Maydoncha- dagi paxta xom ashyosini taxminiy massasi, t
		havo so'risi qo'llamaganda	havo so'risi qo'llaganda	
1	2	3	4	5
I	9 gacha	8	-	400
	9,1-12,0	-	8	350
	12,1-14,0	-	7	300
	14 dan yuqori	-	6	250
II	10 gacha	8	-	370
	10,1-13,0	-	8	300
	13,1-16,0	-	7	250
	16 dan yuqori	-	6	200
III	11 gacha	7	-	350
	11,1-15,0	-	7	300
	15,1-18,0	-	6	230
	18 dan yuqori	-	6	200
IV	13 gacha	6	-	270
	13,1-17,0	-	5	200
	17,1-20,0	-	4	190
V	20,1 dan yuqori	-	4	*

Paxta g'aramlarga jamlanganda (cho'kishdan avval) balandligi quyida keltirilgan ko'rsatkichlardan oshib ketmasligi kerak .

Paxta g'aramlarining tayyorlov davrida ruxsat etilgan balandliklari

Eslatma:* Past navli, iflosligi va namligi yuqori bo'lgan paxta maxsus kichkina g'aramga joylanadi. Bunday g'aramning uzunligi 14 m, kengligi 7 m, balandligi 4,0 - 4,5 m (to'g'ri

to'rtburchak qismi 3,1 m, gumbazsimon qismining balandligi 1,5 m) qilib jamlanadi. Bitta 14 x 25 m standart g'aram maydoniga bunday g'aramlardan uchta joylashtiriladi.

Paxtani saqlangandagi va tashilgandagi o'rtacha hisobiy hajmiy zichligi

Saqlash va tashish	Paxta zichligi, kg/m ³	
	I-II navlar	III-V navlar



	o'rta tolali	uzun tolali	o'rta tolali	uzun tolali
Yopiq omborlarda	160-180	180-200	150-160	160-170
G'aramlarda	185-220	190-250	170-190	180-190
Traktor aravalar zichlangan holda tashish	150-160	160-170	160-180	170-190
Zichlanmay erkin holda tashish	50-60	70-80	50-60	70-80

Balandligi 1 m bo'lgan har qaysi paxta qatlami joylangandan keyin g'aram chekkalari 0,5 m dan kam bo'lmagan holda shibbalanadi. G'aram burchaklari 2,5-3,0 m kenglikda zichroq shibbalanadi. Bir kunda bir g'aramga 80 tonnadan ko'p bo'lmagan paxta joylanishi tavsiya etiladi.

Paxtani g'aramlarga joylashda uning cho'kishi hisobiga yon devorlari ko'tarilib qoladi, ularni tarab turish kerak bo'ladi.

G'aram devorlarining eng katta balandligi 7,5 m, g'aram tepasidagi konussimon qismi gumbazsimon shaklga ega bo'lib 2,5 m dan oshmasligi kerak. Konussimon qismining o'rtasi g'aram uzunligi bo'yicha uning o'rtasidan o'tishi kerak.

Paxta g'aramlarini yopish uchun o'lchami 8,5 x 7 m bo'lgan brezent chodirlar qo'llaniladi.

O'lchami 25 x 14 m bo'lgan g'aram o'nta brezent bilan yopiladi. Brezentlar 7 m li tomonlari o'lchami 7 x 17 m bo'lgan chodir hosil qiladigan juft qilib tikiladi va 25 x 14 m maydondagi g'aramni 8 dona brezent bilan yopish zarur bo'lib qolganda, ularni juft-juft qilib 7 m li tomonlari bilan tikiladi. Keyin hosil bo'lgan chodirlarni yana juft-juft qilib 17 m li tomonlari bilan tikiladi. Shunday ikki brezent g'aramga ko'ndalangiga 17 m li tomoni bilan ikkinchi brezent birinchisining ustiga 1 m chiqadigan qilib yopiladi.

Brezent g'aramda halqalaridan o'tkazilgan arqon bilan tortib qo'yiladi. Arqonlar uchi g'aram atrofida yerga o'rnatilgan sim halqalarga bog'lab qo'yiladi. G'aram yopiladigan brezent 350-400 tonnadan oz bo'lmagan paxtani yopishi kerak.

References:

1. Xodjiyev M. T., Tadjiyev U. S. Izucheniya izmeneniya peremesheniya xlopka-sirsa ot vneshney nagruzki pri yego uplotnenii. Dep. Vuz NKIINTI. №22591. Uz. 1996. 9 st.
2. Xodjiyev M. T., Tadjiyev U. S. O vozmozhnosti uplotneniya xlopka-sirsa sposobom bokovogo uplotneniya. Dep. GFNTI GKNT RUz. №2592-Uz. 1996. 12 st.
3. Xodjiyev M. T., Tadjiyev U. S., Mubarakov A. Y. Obespecheniye ustoychivosti bunta pri minimodulnom bokovom uplotnenii xlopka . Tez. dokl. na mejdunarod. nauch. tex. konferensii Azerbaydjanskiy texn. institut. Respublika Azerbaydjan. 1999. 55-56 st
4. Xodjiyev M. T., Tadjiyev U. S., Mubarakov A. Y., Salimov A. M. Ustroystvo dlya uplotneniya voloknistogo materiala. Patent RUz. №1067.
5. Qodirov S. Q., To'xsinov M., Raxmonov Z. "Paxta xom-ashyosini tayyorlash, saqlashda dastlabki qayta ishlash texnologiyasi". (Uslubiy qo'llanma), Andijon, 1997y, 16 b.
6. www.steinertind.com\cotton



7. [www.ieguzexpo.com/dokuments/-](http://www.ieguzexpo.com/dokuments/)
8. www.icas.org/meeting/uzbek